

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ HUDUDLARIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Fatilloev Farrux Farhod o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot va turizm fakulteti
1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat tomonidan olib borilayotgan islohatlar, qabul qilingan dasturlarning bajarilishi va yaratilayotgan imkoniyatlar, oilaviy korxonalar va tadbirkorlik tushunchasi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturi, raqamli iqtisodiyot sharoitida qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va bu borada amalda qilinishi lozim bo‘lgan ishlar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik, oilaviy korxonalar, axoli bandligi, kredit, raqamli iqtisodiyot, bozor, sanoat, tadbirkorlik subyektlari, sug‘urta, “Har bir oila – tadbirkor” Davlat dasturi, tadbirkorlik, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy o‘sish, ishlab chiqarish.

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy-iqtisodiy, ilmiy -ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida “Qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish” alohida ahamiyatga egadir. Qishloq hududlarida oilaviy biznesda raqamli tadbirkorlik zarur. Oilaviy tadbirkorlikning omon qolishi uchun zamonaviy, raqamli texnologiyalardan foydalanish kerak. Raqamli iqtisodiyotda qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikda raqobat qilish uchun eng so‘ngi zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalaridan foydalanish zarur. Raqamli bilim va raqamli texnologiyalar, oilaviy tadbirkorlikni muvaffaqiyatga yetaklaydi. Tez rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot, texnologik o‘zgarishlar qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga turtki beradi. Raqamli tadbirkorlikni qo‘llash bugungi kunda oilaviy korxonalar uchun raqobatbardosh bo‘lish va o‘ta rivojlanayotgan muhitda barqarorlikni ta’minlash uchun muhim shartdir. Shuningdek, korxonalar tez o‘zgarishlarni qabul qilishga moyildirlar, chunki ular raqamli tadbirkorlikni o‘zlashtirishga yordam beruvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Iqtisodiyotni isloh qilish, kambag'alchilikni qisqartirish va axoli bandligini va daromatlarining yuqori darajasini ta'minlashda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan xorijiy mamlakatlarning rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, oila tadbirkorligiga qaratilgan tashabbus nafaqat bandlikni ta'minlash, balki daromatlarni tekis taqsimlash, shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqaror omillari sifatini oshirishda tobora ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.^{11/12} Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlik sohasida ham rivojlanib bormoqda. Bu borada qator hukumat qarorlari, farmonlari qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Qarorlari, 27.03.2021 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5041-son sonli qarori¹³, 20.12.2021 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son sonli qaror¹⁴lari qabul qilindi.

Mustaqillik yillaridagi rivojlanish davomida barcha sohalarda bo'lgani kabi oilaviy tadbirkorlik sohasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharti, raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlari vujudga kelishidan iboratligi uchun ushbu davrda xususiy lashtirishga va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda bozor muhitini yuzaga keltirishning asosiy omillaridan biri kichik biznesni rivojlantirish bo'ldi. Uning turli yo'nalishlaridan biri bo'lgan oilaviy tadbirkorlikga ham katta e'tibor berilmoqda. Har bir oila o'zi yuqori darajada foyda olish bilan birga, u jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va xizmat turlarini yaratadi, mamlakat uchun yangi bo'lgan bozorlarni yaratadi, aholini ish bilan band qilishda hissa qo'shadi, boshqa tashkilot va oilalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va yaratilgan xizmatlarni iste'molchisi sifatida yuzaga chiqadi, ma'lum turdagi soliqlarni to'lab mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ushbu vazifalarni bajarish davomida o'tgan yillarda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tarmoq ko'lami hamda hajmi salmoqli darajada o'sdi. Oilaviy biznes bilan shug'ullanayotgan oilalar soni va shunga mos ravishda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib bormoqda.


Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

¹¹ O'zbekiston Respublikasining qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida. O'zR qonun hujjatlari to'plami, 2012 y. 17-son, 188 modda


¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Xar bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida. <http://andijon.uz/news/>

¹³ <https://lex.uz/docs/-5345627>

¹⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-5785317>



2022-yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 74.1% ni tashkil qildi (2021-yilda – 75.9%)
(Buxoro viloyati misolida)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 3786 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 192 taga yoki 5,3% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3450 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130 taga yoki 3,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 440 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 476 taga yoki 48,0%ga kamayganini ko'rish mumkin¹⁵.



2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 4572 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shulardan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 3661 ta, xususiy korxonalar 298 ta, oilaviy korxonalar 440 ta va boshqalar 173 tani tashkil etdi.¹⁶

Oilaviy korxonalar, obyektiv tarzda, o'z tabiatiga ko'ra yirik biznes bilan qiyoslaganda bozorda raqobat kuchiga ega emas. Ularda ishlab chiqarilayotgan maxsulot turlarining kichikligi tufayli ishlab chiqarish ishlab chiqarish xarajatlari yuqori, fan-texnika bilan jixozlanganlik darajasi, kadrlar malakasi past. Axborot ta'minoti qiyn, ularga ko'pincha marketing tadqiqotlari (oilaviy tadbirkorlikda marketing faoliyatini rivojlantirish) o'tkazish uchun vositalar yetishmaydi. Bu oilaviy korxonalarini bozorda noqulay holatga qo'yadi. Shuning uchun kichik biznesni (oilaviy tadbirkorlikni), davlat va jamiyat tomonidan qo'llab – quvvatlashning mukammal tizimini yaratish – uni rivojlantirishning muxim sharti xisoblanadi.

Oilaviy korxonalarda mablag'lar oqimi juda zarur. Imtiyozli kreditlash davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Nufuzli yirik korxonalariga bank hamisha yordam beradi. Kichik korxonaga (Oilaviy tadbirkorlikda) esa, ayniqsa endigina ish boshlayotgan korxonaga odatdagi sharoitlarda kredit berishi amri mahol. Shuning uchun, Prezidentning "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida axolining biznes tashabbuslarini qo'llab –

¹⁵ Buxoro viloyati statistika boshqarmasining bergan ma'lumotiga ko'ra.

¹⁶ Buxoro viloyati statistika boshqarmasi bergan ma'lumotiga ko'ra.

quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (PQ-39, 31.01.2023y) qabul qilindi. Unga ko‘ra:

- 2023- yilda oilaviy tadbirkotlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarning moliyalashtirish uchun kamida 13 trilloin so‘m yo‘naltiradi;
- Kreditlar ustuvor ravishda dasturlar bo‘yicha avval kreditlardan foydalanmagan axoli va tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi;
- Dehqon xo‘jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlariga 50 mln. so‘mgacha garovsiz kredit beriladi;
- Xokim yordamchisining tavsiyanomasiga ko‘ra kredit summasining 10 mln. so‘mgacha bo‘lgan qismi (hunarmandlar uchun 20 mln. so‘mgacha bank kartalariga (naqdlashtirish imkoniyatini cheklangan holda) o‘tkazib beriladi;
- Dasturlar doirasida kreditlarni yillik 14 foiz stavkada ajratish tartibi saqlab qolinadi.

Bu imkoniyatlar qishloq xududlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga juda katta turtki bo‘ladi. Oilaviy tadbirkorlik sohasida o‘tkazilgan tahlillar mamlakatimiz va uning hududlarida aholini tadbirkorlikka jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni ta‘minlash, o‘zini – o‘zi band harakat qilayotgan fuqarolarga amaliy yordam berish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlarda hali foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Shu kamchiliklarni bartaraf etish, har bir oila uchun o‘zini-o‘zi band qilishi uchun, barcha imkoniyatlardan oqilona va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida mamlakatimizda “Har bir oila – tadbirkor” Dasturi qabul qilindi ¹⁷

“Har bir oila – tadbirkor” Dasturining asosiy yo‘nalishlari qatorida quyidagilar belgilandi:

1. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni ixtiyor etgan aholiga imtiyozli kreditlar ajratish. Ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida amaliy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlash. Bunday amaliy yordam barcha mutasaddi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

2. Aholiga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va faoliyat turini tashkil etishda amaliy yordam ko‘rsatish.

3. Tadbirkorlik subyektlarini faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila – tadbirkor” Dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori. Hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018 y., 07/08/377/1325-son

4. Mikrofirmalarni, kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlar va kasanachilik bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun moliyaviy yordam berish. Aholiga qo'shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish.

5. Mahallalarda mini-klasterlar tashkil etish. Bunda tadbirkorlik sohasida ijobiy natijalarga erishgan tajribali tadbirkorlarga bunday faoliyatni yangidan boshlayotgan tajribasi kamroq bo'lgan oilalarni birlashtirish.

6. Oilaviy tadbirkorlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirish. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni savdosini tashkil etuvchi bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalarini barpo etish.

7. Bo'sh turgan yer maydonlarini yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlariga berish. Aholi uchun qo'shimcha ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratish.

8. Davlat ro'yhatidan o'tmasdan faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarni aniqlash va ular faoliyatini qonuniylashtirishda yordam ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida tadbirkorlik faoliyati subyektlariga ajratiladigan kreditlarga ustuvor ravishda kafilliklar va foiz harajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar ajratadi.

Oilaviy tadbirkorlarga tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlarning qaytmaslik xatari sug'urtalanganda sug'urta to'lovi 1,5 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi va sug'urtalash shartlari yengillashtiriladi. Oilaviy biznes faoliyatiga alohida e'tibor berilishiga qaramasdan, ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadal sur'atlarda rivojlanishi uchun ulardagi boshqaruv faoliyatini hozirgi davr darajasiga chiqarish talab etilmoqda. Zamonaviy boshqaruv usullari va tamoyillaridan foydalanish sohasida, iqtisodiy resurslardan foydalanish tartibi sohasida, mehnat resurslarini boshqarish faoliyati sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar mavjud.

Shuni aytish kerakki, Raqamli iqtisodiyot sharoitida oilaviy korxonalar egalari tomonidan ko'rib chiqishi va amalga oshirishi kerak, chunki bu oilaviy korxonalarining uzoq umr ko'rishiga yordam beradi. Oilaviy korxonalar raqamli dunyoda tadbirkorlik bilan shug'ullanish imkoniyatini beradilar, agar ularning yetakchi guruhlari, ularning tashkiliy tuzilmalari, jarayonlari va xodimlari tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi zarur bo'lgan muhim xususiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida. O‘zR qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y. 17-son, 188 modda
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Xar bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida. <http://andijon.uz/news/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila – tadbirkor” Dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori. Hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.06.2018 y., 07/08/377/1325-son
4. I.M.Xasanov. “Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlik salohiyatining iqtisodiy natijadorligini oshirish
5. Xasanov I.M. Iqtisodiy taraqqiyot va oilaviy tadbirkorlik. // «O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnali, 2021 yil, №2-son
6. Tolametova Z.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida mehnat bozorini rivojlanish yo‘nalishlari 2014. Toshkent. “Iqtisodiyot” 305 b
7. Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. 400 b.
8. Гулямов С.С. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019.
9. Buxoro viloyati statistika boshqarmasining bergan ma’lumotiga ko‘ra.
10. <https://lex.uz/docs/-5345627>
11. <https://lex.uz/uz/docs/-5785317>
12. <https://yuz.uz/uz/news/oilaviy-tadbirkorlikni-rivojlantirish-va-aholining-daromad-manbaini-kengaytirishga-doir-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida>